



**Loyiha nomi:** П3-20170927147 - “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo’lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi”

**Loyiha rahbari:**

f.f.n., dots.Tilavov Abdumurod Xolmurotovich.

**E-mail:** tilavov@navoiy-uni.uz

**Tel:** +998946252507

### **Loyihaning maqsadi:**

O‘zbek adabiyoti tarixining eng qadimgi davrlaridan tortib XIII asrga qadar davr oralig‘ini qamrab olgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarining nisbatan eskiligi, davr talabiga muvofiq ularda berilgan ma'lumotlarning bugungi kunga to‘g‘ri kelmasligi barcha davrlarni qamrab olgan yaxlit monografiyaga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Ushbu ehtiyoj sabab loyiha o‘z ishini rejali tarzda tashkil etdi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra -“Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” monografiyasini har bir tadrijiy tamoyilda; aniqlangan va tahlil va tadqiqqa tortilgan eng qadimgi yozma manbalar asosida yoritish vazifasi belgilab olindi.

Respublikamizda, qo‘shni respublikalarda va xorijdagi ilmiy safarlarda qo‘lga kiritilgan manbalar tadqiqi asosida ilmiy-nazariy xulosalarni taqdim etish loyiha mavzusi asosida nashr etiladigan monografiyaning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, topilgan manbalar xorijlik olimlarning qarashlari va ilmiy guruh a'zolarining fikrlari umumlashtiriladi. **(150-200 ta so‘zdan iborat matn).**

### **Loyihaning qisqacha tavsifi:**

Turkiy-run yozma toshbitiklari, xususan, O‘zbekistondan topilgan toshbitiklarning qadimgi yozma adabiyot, folklor, umuman, ma'naviy va ma'rifiy jarayon uchun ahamiyati benihoya katta ekanini alohida ta'kidlash lozim. Loyihada, birinchi navbatda, O‘zbekiston hududidan topilgan toshbitiklarga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur toshbitiklarning umumiy holati, ularning deshifrovkasi haqida fikrlar bildiriladi.

Toshbitiklarni deshifrovka qilishda albatta, o‘qilish tamoyillari bilan bir qatorda, so‘z ma'nolariga e'tibor berish ham talab etiladi. Agarda bitigtoshlarning turli joylardagi bir necha nashrlari mavjud bo‘lsa, nashrlarni qiyoslash va deshifrovkachilarning so‘zlarni qaysi ma'noda qo‘llaganlarini ham aniqlash lozim bo‘ladi.

Tadqiqotlar qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalarda ajdodlarimizning tili, madaniyati, dunyoqarashi bilan bog‘liq shu paytgacha ilm-fanda ma'lum bo‘lmagan qiziq ma'lumotlar borligi aniqlanmoqda. Ushbu ma'lumotlarni tadrijiy tamoyillarda tadqiq etib, yaxlit monografiya holatida nashr etishdan iborat. **(150-200 ta so‘zdan iborat matn).**

### **Kutilayotgan natija:**

Tadqiqotga ob'ekt sifatida olingan manbalarni folklorizm va folklorshunoslik nuqtai nazaridan yangicha yondashuv asosida tadqiq etilishi adabiyotshunoslik va folklorshunoslikni yangi sifat bosqichiga olib o‘tishi aniq.

Shuningdek, toshbitiklarni o‘rganish, xususan, O‘zbekiston hududidan topilgan toshbitiklar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish filologiya fani uchun katta ahamiyatga ega.

Loyiha a'zolari tomonidan o‘zbek adabiyotining tarixiga oid 1 ta monografiya (prof. N.Rahmonovning “Tarixdan oziqlanib” monografiya nazarda tutiladi; hajmi 7 b.t.; loyiha mavzusi bo‘yicha 118 sahifa tadqiqot bajarilib, monografiyaga kiritilgan), 50 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Bu monografiyaning asosiy qismi turkiy yozma va og‘zaki manbalar tadqiqi va tahlili asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Loyihada belgilangan maqsad va vazifalarning umumiy mazmuni **“Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli monografiyani yaratish dolzarb ahamiyatga ega va buning uchun yetarli ilmiy salohiyat mavjud, degan xulosani beradi.**

Loyiha natijasi sifatida nashr qilinadigan monografiyadan nafaqat respublika miqyosida, balki xorijdagi ilmiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayonida qo‘shimcha uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanish kutilmoqda. **(150-200 ta so‘zdan iborat matn).**

### **Qo‘llanish doirasi:**

Monografiya oliy ta'lim bosqichlarining filologiya fakultetlari, adabiyotshunos olimlar, doktorant va ilmiy izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining folklor ana'nalariga doir qimmatli ma'lumotga ega bo‘ladilar. **(100-150 ta so‘zdan iborat matn).**

**Amalga oshirish:**

2017-2020-yillarga mo'ljallangan IT3-20170927147-"Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" nomli monografiyani chop etishda ilmiy-amaliy loyiha doirasida nashrga tayyorlandi. Loyiha davomida 1 ta darslik, 1 ta majmua, 3 ta monografiya nashr etildi.

2. 10 dan ortiq xalqaro jurnallarda maqola e'lon qilindi.
3. 30 dan ortiq mahalliy jurnallarda, 60 dan ortiq respublika va xalqaro konferensiyalarda maqola e'lon qilindi.